

QAHRAMONLIK – XULQ-ATVOR MEYORINING AJRALMAS QISMI SIFATIDA.

Djumaboev Jaloliddin Zayniddinovich

*O‘zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti Jangovar tayyorgarlik sikli katta
o‘qituvchisi, dotsent, podpolkovnik
Tel: +99899 001 11 09*

Annotatsiya: *Jamiyatda har bir xulq-atvor namunasi axloqiy mezonlar asosida baholanadi.*

Kalitso‘zlar: *Qahramonlik, xulq-atvor, mardlik, xushxulqlik, tarbiya vositasi, me‘yoriy.*

Abstract: *In society, every example of behavior is evaluated based on moral criteria.*

Keywords: *Heroism, behavior, courage, good manners, educational tool, normative.*

Kirish: Qahramon- bu insonning jamiyatda qanday o‘rin egallaganini ko‘rsatadigan ijtimoiy maqom. Ko‘pincha hayotda odamlar qahramonlarga taqlid qilishni va ularni maqtashni boshleydilar. Qahramonlik harakatlari har doim boshqa odamni xursand qilishga qaratilgan. Shuni ta’kidlash kerakki, qahramonlar tug‘ulmaydi, balki yaratilgan. Ushbu rolga muvaffaqiyatli qo‘shilish uchun insonning ijtimoiylashuviga yordam beradigan individual psixologik fazilatlarga ega bo‘lish kerak.

Xulq-atvor– inson kundalik hayotidagi xulq-atvor shakllarining yig‘indisi. Unda shu xulq-atvorga xos ma’naviy-axloqiy va estetik me‘yorlarning ifodasi aks etadi. Ya’ni, xulq-atvor madaniyati shaxsda shakllangan ijtimoiy muhim sifatlar, uning jamiyatdagi ma’naviyat, axloq va estetik madaniyat me‘yorlariga asoslangan kundalik xatti-harakatlarining yig‘indisidir. Agar ma’naviy-axloqiy me‘yorlar kishilar xatti-harakatining mazmunini belgilab, ularni muayyan vaziyatlarda qanday harakat qilish lozimligi haqida ogohlantirsa, estetik me‘yorlar kishi o‘z xulq-atvorida axloq talablarini qay ko‘rinishda amalga oshirishi, qanday qilib bu me‘yorlar uning turmush tarzi bilan tabiiy ravishda uyg‘unlashib ketishi, shaxsning kundalik hayotiy qoidalariga aylanib ketishini belgilaydi. Masalan, kishilarga bo‘lgan hurmat talabi kundalik hayotdagi xulq-atvorga qo‘llansa, u xushmuomalalik, nazokatlik, sergaklik, boshqalar vaqtini behudaga ketkazmaslik kabilarda aks etadi. O‘z zimmasidagi majburiyatlarga sadoqat talabi xulq-atvor madaniyati nuqtai nazaridan berilgan va’dalarni amalga oshirishdagi aniqlik, kelishilgan vazifalarni o‘z vaqtida va samarali bajarish, omonatni qaytarish kabilor orqali namoyon bo‘ladi. Rostgo‘ylik esa o‘zining namoyon bo‘lish shakliga ko‘ra to‘g‘rilik, sofdillik,

adolatparvarlik, haqqa xiyonat qilmaslikda o'z ifodasini topadi. Kishi xulq-atvori etologiya, psixologiya, sotsiologiya kabi fanlar tomonidan o'rganiladi. Ushbu hodisaning tabiatini aniqlashtirishda uning birlamchi – “barcha tirik jonzorlarga xos, ularga atrof-muhit bilan o'zaro aloqaga kirishishda zarur bo'lgan, harakat faolligini ishga soluvchi va yo'naltiruvchi hodisa” sifatidagi ta'rifidan foydalanish maqsadga muvofiq.

U tabiiy faoliyat bo'lishi bilan birga, mohiyatan ijtimoiy ehtiyojlarga yo'naltirilgan, kishilarning birgalikda umr kechirish me'yorlari va qoidalari doirasida, tabiiy va ijtimoiy muhit omillarining o'zaro harakati natijasida ro'y beradigan hodisadir. Xulq-atvor madaniyatiga inson madaniyati ichki va tashqi sohalarining barchasi kiradi: etiket, salomlashish, kishilar bilan muloqot qilish va jamoatchilik joylarida o'zini tutish qoidalari, shaxsiy ehtiyoj va manfaatlar xarakterini o'z ichiga olgan turmush madaniyati, ishlash madaniyati va ishdan tashqari o'zaro munosabatlar, bo'sh va shaxsiy vaqtni tashkil qilish madaniyati (ya'ni undan oqilona va unumli foydalanish, vaqtni zo'ra ketkazmaslik), nutq madaniyati (fikrini aniq-ravshan va chiroyli ifodalash), gigiyena va umuman, iste'mol narsalarini tanlashda o'ziga xos estetik didga ega bo'lish (kiyinish madaniyati, dasturxon tuzatish, uy-joy yasatish va boshqa), insonga xos mimika va pantomimikaning estetik xususiyatlari, tana harakatlari va hokazo. Ma'lum ma'noda, xulq-atvor madaniyatiga mehnat madaniyati, ish vaqti va joyini to'g'ri tashkil qilish qobiliyati, imkon qadar foydali natijalarga erishish va samarali qarorlar qabul qilish, maqsadga muvofiq usul va xatti-harakatlarni izlash hamda qo'llashni ham kiritish mumkin. Umuman, xulq-atvor madaniyati ichki dunyo va tashqi qiyofadagi barcha ma'naviy-axloqiy hamda estetik xususiyatlarning organik birligi sifatida talqin qilinadi. Ba'zan bu xususiyatlarga ega bo'lish kishining jamiyatdagi o'rni, mavqeini oshiradigan vosita sifatida qo'llanishiga guvoh bo'lamiz. Insonning ichki va tashqi dunyosi bir-biriga uyg'un bo'lsagina, uning xulq-atvoridagi madaniyat yaqqol namoyon bo'ladi. Lekin tashqi qiyofasi ichki dunyosiga to'g'ri kelmaydigan insonlarni ham uchratish mumkin. Bundaylarda xushmuomalalik va umuman, jamiyatda muayyan etiketga rioya qilish xudbinlik tamoyillariga asoslangan bo'lib, ko'pincha uning zamirida kishilarga nisbatan beparvolik, loqaydlik, begonalik, hatto ehtiyotkorlik (gumonsirash) va g'azab munosabatlari yashiringan bo'ladi. Xulq-atvor madaniyatining bunday rasmiy tarzda namoyon bo'lishi insonning asl qiyofasini ochib berolmaydi. U bir vaqtning o'zida insonning ham ma'naviy, ham axloqiy, ham estetik qiyofasini aks ettirishi, kishi bashariyatning madaniy yutuqlarini o'zida qanchalik to'g'ri va chuqur o'zlashtirgani, shu bilan birga, o'zining yutug'i nimalardan iborat ekanini ko'rsatadi. Shu ma'noda, Xulq-atvor madaniyati jamiyat madaniyatining ajralmas qismidir. Hozirgi kunda jamiyatda tarbiyali, xushxulq, til va dil birligiga erishgan, ichki va tashqi olami birday go'zal insonlarni ko'plab uchratish mumkin. Ammo kishilar, ayniqsa, yoshlar orasida

tinimsiz o'qish, izlanish va jamiyatga naf keltirish kabi buyuk maqsadlarni qo'yish va ularga erishish, ichki dunyosini boyitish, xulq-atvor madaniyatini yuksaltirishga intilishdan ko'ra e'tiborini ko'proq kiyinish, o'ziga oro berish, tashqi qiyofasiga qaratayotganlar ham yo'q emas. Mashhur rus adibi A. Chexov haqli ravishda ta'kidlaganidek: "Insonda hamma narsa go'zal bo'lishi lozim: yuzi ham, kiyimi ham, qalbi va hatto, fikri ham... Men go'zal yuzli, chiroyli kiyimli kishilarni juda ko'p ko'raman, bunday go'zallikdan boshing aylanadi, biroq qalbi va xayollari... Ey, Xudo! Ba'zan chiroylikkina qobiqqa shunchalik qora ko'ngil joylashib oladiki, uni hech bir siyoh bilan o'chirolmaysan".

Shunday qilib, xulq-atvor madaniyati me'yorlarda, qoidalarda, tamoyil va ideallarda mustahkamlangan jamiyat axloqiy talablarini ifodalaydi. Ular shaxsiy tajriba bilan uyg'unlashib, quyidagilarda namoyon bo'ladi: shaxsning tashqi ko'rinishi; boshqalar oldida o'zini qanday tuta bilishi; qaysi yo'lni tanlashi; o'z hayot tarzi va kishilar bilan muloqotini qay yo'sinda tashkil qilishi va rivojlantirishi. Bolaga yoshlik chog'laridanoq Vatani, eli, yaqinlariga mehr-muhabbatli va yaxshi munosabatda bo'lishni singdirish, unga shaxsiy namuna bo'lish har bir ota-onaning birinchi galdagi vazifasi. Keyingi qadam o'z-o'zini tarbiyalashdir. Bu – o'z xarakterini shakllantirish, o'zida chinakam insoniy sifatlarni ongli ravishda rivojlantirish yo'lidir. Bugungi kunda o'qish, o'rganish va o'z-o'zini tarbiyalash uchun talay vosita va imkoniyatlar mavjud: maktablar, maxsus kurslar, o'quv yurtlari, kutubxonalar, teatr-kino, TV va boshqalar. Ulardan nafaqat tashqi qiyofa va estetik didni shakllantirishda, balki ichki dunyoni boyitish, ma'naviyatni yuksaltirish, go'zallikni qalbdan his etish, qabul qilish va o'rnida ishlata bilish yo'lida ham foydalanish lozim. Buning uchun inson tinimsiz o'qib-o'rganishi, izlanishi zarur. Inson madaniyatining bir qanoti estetik did bo'lsa, ikkinchi qanoti uning axloqi, xulqidir. Yusuf Xos Hojib aytganidek: "Kishi chiroyiga ichki dunyosi eshdir, Yuz ko'rki bilan uning fe'l-atvori tengdir". Zero, insonni go'zal qilib ko'rsatadigan uning chiroyi emas, balki chiroyli xulqidir.

Xushxulqlik xunuk kishini ham chiroyli qilib ko'rsatadi. Chiroyli xulq chiroyli kishilarda mavjud bo'lsa, nur ustiga a'lo nurdir. Xulq-atvor qoidalariga rioya etish, uni o'z ichki dunyosiga singdirish, xulq-atvor madaniyatining eng yuksak cho'qqilariga ko'tarilish kishidan o'z ustida har kuni ishlashni talab qiladi. Bu uning kelajakda har jihatdan kamol topishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu mezonlar ichida qahramonlik insoniy jasorat, fidoyilik va oliyjanoblikning yuksak namunasi sifatida alohida o'rin tutadi. Qahramonlik – bu umumiy qabul qilingan me'yorlarga hech qanday aloqasi bo'lmagan xatti-harakatlar shakli. Jamiyat harakatlarni baholey boshlasa, ba'zi odamlarni qahramonlar deb atasa, bu ma'lum bir madaniyatning an'analari va qadiryatlari bilan bog'liq. Qahramonlik — bu shunchaki jasorat emas, balki xalq va Vatan oldidagi ijtimoiy, axloqiy burchni ongli ravishda ado etishdir. Shu sababli,

qahramonlik jamiyatda xulq-atvor qadrlanishini belgilovchi me'yor sifatida xizmat qiladi. Albata qahramonlik mavhum tushunchadir.

Qahramonlik faqat harbiy holatlarda emas, balki tinch hayotda ham (ilmda, mehnatda, shaxsiy jasoratda) namoyon bo'ladi. Jamiyat ongida bu tushuncha axloqiy fazilatlarining cho'qqisi, yuksak insoniylik mezonini sifatida qaraladi.

Jamiyat tomonidan maqtaladigan har bir qahramon — yosh avlod uchun axloqiy ibrat, tarbiya vositasi, me'yoriy "andaza" bo'lib xizmat qiladi.

Qahramonlik me'yor sifatida qanday ishlaydi? Qahramonlik nima? Qahramon kim?

Qahramonlar orqali qadriyatlar shakllanadi qahramonlar jamiyat tomonidan qadrlanadigan halollik, fidoyilik, mardlik, vatanparvarlik, g'urur kabi xulq-atvorlarni o'zida mujassam etadi. Ularning hayoti va harakati orqali bu xatti-harakatlar ixtiyoriy me'yorga aylanadi: jamiyat shu xatti-harakatlarni ma'qullaydi, ulug'laydi, takrorlanishini istaydi.

Qahramonlik – ijtimoiy motivatsiya vositasi ijtimoiy tazyiq emas, balki ijobiy namuna sifatida tarbiya beradi. Yoshlarga: "Qahramon bo'lish – eng yuksak fazilat" degan ruhni singdiradi. Shu tariqa qahramonlik jamiyatda xatti-harakatlar uchun mezon (norma) bo'lib xizmat qiladi.

Pisixologiyada "qahramonlik" ta'rifi ijobiy shakilga erga bo'lgan deviant xatti-harakatini nazarda tutadi. Jamiyat birov haqida qahramon sifatida gapirganda, u inson va boshqalar o'rtasidagi farqni ta'kidlaydi. Qahramonlikka moyil odamlar ko'pchilikda mavjud bo'lmagan fazilatlar majmui bilan ajralib turadi. Qahramonlikni kimdir qiyin ahvolda qolgan odamlarni qutqarganda, harbiy harakatlarda qatnashganda yoki begona odamni qaroqchilardan himoya qilganda ko'rish mumkin. Barcha qahramonliklarning asosiy xususiyati shundaki, ular ongli ravishda boshqalarni qutqarish uchun o'z hayotini xavf ostiga qo'yishadi.

Qahramon maqomiga ega bo'lgan odam, unga moslashishga harakat qiladi va ko'pincha bu shaxsiy nizolarga olib keladi. Agar biror kishi boshqalar undan kutgan xatti-harakatlarni ko'rsatishga tayyor bo'lmasa, bu soxta qahramonlikka olib kelish mumkin.

Xulosa: Qahramonlar obrazi orqali turli xalq va madaniyatlar bir-birini mazmunan boyitadi, bu esa global madaniy meros va madaniyatlararo tushunishning yanada chuqurroq rivojlanishiga xizmat qiladi. Qahramon obrazi – bu faqatgina adabiy timsol emas, balki turli xalqlar madaniy ongining ko'zgusi, ma'naviy merosining timsoli hamdir. Ushbu izlanish natijalari, bir tomondan, har bir madaniyatning o'ziga xos qadriyatlarini yanada chuqurroq anglashga yordam bersa, boshqa tomondan, milliy va xalqaro miqyosda madaniyatlararo muloqotni kengaytirish, o'zaro hurmat, hamkorlik va bir-birini tushunishni rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Adabiyotlar ro‘yhati:

- 1 Sharipov M. Falsafa tarixi (kadimgi shark va Fap6 falsafasi). - Toshkent: Universitet, 2017. - B. 124.
2. O‘sha yerda. - B. 125. Ikkinchi isbot: hech bir narsa o‘z holicha vujudga kelmaydi va mavjud bo‘lmaydi, u faqat boshqa narsaga nisbatangina vujudga
3. Sharipov M. Falsafa tarixi (kadimgi shark va Fap6 falsafasi). - Toshkent: Universitet, 2017. - B. 126.
4. Aliev A. Ma’naviyat, qadriyat va badiiyat. – T.: Ma’naviyat, 2000. – 630 b.
5. Aliqulov X. Gumanistik meros va shaxs ma’naviy kamoloti. – Toshkent: Ma’naviyat, 2006. – 56 b.
6. Ahmedov M., Shoumarov O. Vatan mahalladan boshlanadi. Hayot va iqqisod. 1992.
7. Inomova M. Oilada bolalarni ma’naviyaxloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish. — T., «Fan», 1995.